O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 22-iyul | 398-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son qarori ijrosi to‘g‘risida

Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan tumanlar va shaharlarning drayver yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun master-rejalarni ishlab chiqish amaliyotini keng joriy qilish, bo‘sh yer uchastkalarida yuqori daromad keltiradigan faoliyat turlarini tashkil qilish, shuningdek, infratuzilma loyihalarining master-rejalarga muvofiq amalga oshirilishini tashkil qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ruyobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-son qaroriijrosini ta′minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ruyobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorning **1-ilovasiga** muvofiq tumanlar va shaharlarda zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini joylashtirishni nazarda tutuvchi master-reja loyihalari tayyorlanganligi ma′lumot uchun qabul qilinsin.

Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosarlari (Sirojitdinov, Isaqov), Farg‘ona shahar hokimligi (Nazarov), Marg‘ilon shahar hokimligi (Nisbatxonov):

2024-yil 1-avgustga qadar master-rejani hududiy arxitektura va shaharsozlik kengashlari bilan kelishgan holda tasdiqlasin;

2024-yil 1-avgustdan boshlab joriy yil yakuniga qadar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov) hamda Kadastr agentligi (Mashrapov) bilan birgalikda master-rejalarga muvofiq zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun master-reja hududidagi yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rsin;

Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (Fozilov) bilan birgalikda, zarur hollarda, master-reja hududlaridagi yer uchastkalarining toifasini o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va o‘rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Hukumat komissiyasiga kiritishni ta′minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, shaharlar va tumanlar markazlarini rivojlantirish hamda aglomeratsiya hududlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar va shaharlar ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq;

Aholi va sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega turizm maskanlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar va shaharlar ro‘yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlanganligi ma′lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tumanlar va shaharlar bo‘yicha ishlab chiqiladigan master-rejalarning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

shaharlarda va tuman markazlarida urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan aholi ehtiyojidan kelib chiqib ko‘p qavatli va yakka tartibdagi uy-joylar majmualarini tashkil qilish;

aholi gavjum bo‘lgan shahar hududlaridan oqib o‘tuvchi suv bo‘ylarini obodonlashtirish, piyodalar va velosiped yo‘laklarini qurish, ular atrofida yengil konstruksiyali ko‘chma savdo va servis shoxobchalarini tashkil etish;

hududlarda aholi, turistlar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratish, jumladan “yashil” hududlarni ko‘paytirish, zamonaviy xizmat ko‘rsatish va servis obyektlarini, dam olish va ko‘ngilochar markazlar, savdo majmualarini tashkil qilish va yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish;

bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish, jumladan hududning drayver yo‘nalishlarini hisobga olgan holda yer uchastkalarida iqtisodiy samarasi yuqori faoliyat turlarini rivojlantirish, shuningdek, bo‘sh yerlarni tayyor lotlarga ajratgan holda tadbirkorlik subyektlariga elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish;

hududning infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojini baholash, jumladan bo‘sh yer uchastkalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari uchun zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilma obyektlari parametrlarini aniqlash;

aholi va tadbirkorlik subyektlarining takliflari asosida master-rejalarni ishlab chiqish, jumladan investitsiya va infratuzilma loyihalarini tanlab olish va shakllantirish.

5. Qarorning 2-ilovasidagi tumanlar va shaharlarda master-rejalarni ishlab chiqish maqsadida:

a) Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida:

bir hafta muddatda Farg‘ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov), Farg‘ona viloyati Soliq bosh boshqarmasi (Mamatxanov) hamda Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Mashrapov) bilan birgalikda ushbu qarorning 4-bandida keltirilgan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, keyinchalik “K-SAVDO” va “E-AUKSION” tizimlarida tadbirkorlik va shaharsozlik maqsadlarida realizatsiya qilish uchun maydonining kamida 60 foizi bo‘sh yer uchastkalaridan iborat bo‘lgan (renovatsiya hududlari bundan mustasno) hududlarni tanlab, ularning ro‘yhatini tasdiqlash uchun Farg‘ona viloyati hokimligiga kiritilsin;

ikki hafta muddatda master-rejalarni ishlab chiqishga qo‘yiladigan minimal talablar asosida texnik topshiriqlarni (keyingi o‘rinlarda - texnik topshiriq) ishlab chiqib, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev) hamda Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov) bilan kelishgan holda tasdiqlasin;

bir oy muddatda texnik topshiriq, tashkilot va kompaniyalarga qo‘yiladigan minimal talablar asosida belgilangan tartibda master-rejalarni ishlab chiqish uchun tashkilotlarni tanlab, shartnomalar tuzsin;

2024-yil 1-noyabrga qadar master-rejalarni Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev) hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov) bilan kelishgan holda tasdiqlashni ta′minlasin.

Bunda:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Soliyev) master-reja hududidagi bo‘sh yer uchastkalarini master-rejalar tasdiqlangunga qadar auksion savdolariga chiqarmaslik choralarini ko‘rsin.

qarorga 2-ilovadagi tumanlar va shaharlar bo‘yicha ishlab chiqiladigan master-rejalarni moliyalashtirish manbai etib viloyat mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbaalari va O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet ssudasi belgilanganligi inobatga olinsin.

b) Farg‘ona viloyati hamda tegishli shahar va tuman hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari master-rejalarning o‘z vaqtida ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi uchun mas′ul etib belgilansin.

6. Farg‘ona viloyati turizm boshqarmasi (Temirov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov), Farg‘ona tumani hokimligi (Inomov) bilan birgalikda ikki hafta muddatda mazkur qarorga 3-ilovaga muvofiq Farg‘ona tumanida turizm salohiyati yuqori hududlarni belgilasin, ikki oy muddatda ularda turizm maskanlarini tashkil etish bo‘yicha master-rejalarni ishlab chiqish maqsadida ishlab chiquvchilar bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzib, 2024-yil 1-noyabrga qadar master-rejalarni ishlab chiqishni yakunlash choralarini ko‘rsin.

7. Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari Sirojitdinov, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda bir hafta muddatda 2024-yilda master-rejalarni

ishlab chiqish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar reja-grafiklarini tasdiqlasin.

8. Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosarlari Sirojitdinov, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Soliyev), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (Pozilov) hamda Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Mashrapov) master-rejalar hududlaridagi bo‘sh yer uchastkalarini master-rejalarda belgilangan obyektlarni tashkil etish sharti bilan auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rib borsin.

Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosari (Mamajonov), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (O‘lmasov), Turizm boshqarmasi (Temirov), Savdo-sanoat palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Yuldashev) bilan birgalikda master-rejalarni amalga oshirish, jumladan master-reja asosida auksion savdolariga chiqariladigan bo‘sh yer uchastkalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalariga tashabbuskorlarni jalb qilish choralarini ko‘rsin.

9. Tashkiliy-kadrlar guruhi (Muxiddinov) qarorga muvofiq, viloyat hokimliklarining tashkiliy tuzilmasida hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari bo‘ysunuvida hududlarning ixtisoslashuvini hisobga olgan holda master-rejalar soni va ko‘lamidan kelib chiqib, 3-5 tagacha shtat birligidan iborat master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish buyicha **Loyiha ofislari** (keyingi o‘rinlarda-Loyiha ofislari) tashkil etish bo‘yicha taklif kiritsin.

Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari Sirojitdinov, Farg‘ona viloyati hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (Muxidinov):

belgilangan tartibda master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish buyicha Loyiha ofisini tashkil qilib, salohiyatli kadrlar bilan to‘ldirilsin.

10. Loyiha ofislarini asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

tuman va shaharlar hokimliklari bilan hamkorlikda tuman va shaharlarda master-reja hududlarini aniqlash, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ushbu hududlar chegaralarini belgilash va uning tasdiqlanishini ta’minlash;

master-rejalarni ishlab chiqishda buyurtmachilar bilan yaqindan ishlab, ularga texnik topshiriqlarni tayyorlash, master-rejalarni ishlab chiqishga jalb etiladigan tashkilotlarni aniqlashga ko‘maklashish;

master-rejalarga muvofiq yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarishni va tashabbuskorlarni jalb qilishni tashkil qilish;

master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oyda tegishli hududiy komissiyaga kiritib borish.

Bunda, Loyiha ofislari rahbari maqomi va mehnatga haq to‘lash shartlari bo‘yicha tegishlicha viloyat hokimligining kotibiyati mudiriga tenglashtirilishi hamda

Loyiha ofislari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni har oyda monitoring va muhokama qilish ishlariga viloyat hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari shaxsan mas′ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

10. Master-rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishni tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha quyidagi vertikal tizim tashkil qilinganligi:

a) hududiy darajada viloyat hokimi rahbarligida **4-ilovaga** muvofiq hududiy komissiya tarkibi tasdiqlansin hamda buyurtmachilar va Loyiha ofisi bilan birgalikda master-rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish bilan bog‘liq ishlarni har oyda muhokama qiladi, aniqlangan muammolarni vakolat doirasida bartaraf etib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ma′lumot kiritib boradi;

b) tuman (shahar) darajasida tuman (shahar) hokimlari master-rejalarni ishlab chiqishga jalb etiladigan tashkilotlar bilan doimiy ishlaydi, tegishli ma′lumotlarni taqdim qilib boradi hamda yer uchastkalarini master-rejaga muvofiq auksion savdolariga chiqaradi.

Bunda respublika komissiyasining ishchi organi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, hududiy komissiyalarning ishchi organi esa Loyiha ofislari etib belgilanganligi inobatga olinsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas′ul va shaxsiy javobgar etib Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i L.Pozilov, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i A.Soliyev, Turizm boshqarmasi M.Temirov hamda shahar va tuman hokimlari belgilansin.

12. Qaror ijrosini nazorat qilish hamda ijro uchun mas′ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 22-iyuldagi
398-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tijorat banklari ko‘magida ishlab chiqilgan master-rejalarga muvofiq auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari parametrlari

T/r	Shahar nomi	Auksionga chiqariladigan yer uchastkalari			*shundan*																	
					chakana savdo		yirik savdo, bozor majmualari		umumiy ovqatlanish shoxobchalari		ko‘ngilochar markazlar		maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari		xususiy ijtimoiy xizmatlar		ko‘p qavatli uy-joy binolari		joylash-tirish vositalari		boshqalar	
		lot soni	maydoni, gektar	obyekt soni	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar	obyekt soni	maydoni, gektar
Jami		**63**	**56,8**	**494**	**60,0**	**8,0**	**1,0**	**0,3**	**60,0**	**2,0**	**2,0**	**8,5**	**250**	**3,5**			**72**	**18,3**	**4,0**	**1,2**	**45,0**	**15,0**
1.	Farg‘ona shahri	63	56,8	494	60,0	8,0	1,0	0,3	60,0	2,0	2,0	8,5	250	3,5			72	18,3	4,0	1,2	45,0	15,0

Izoh: *Auksionga chiqariladigan lotlar soni, maydoni va obyektlar soni hamda yo‘nalishlariga yer uchastkasini tanlash materiallari ishlab chiqilib, "YERELEKTRON" ATT orqali kelishilgandan so‘ng aniqlik kiritiladi.*

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 22-iyuldagi
398-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, shaharlar va tumanlar markazlarini rivojlantirish hamda aglomeratsiya hududlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar RO‘YXATI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Hudud nomi
1.	Dang‘ara tumani	Farg‘ona viloyati
2.	Uchko‘prik tumani	
3.	Quva tumani	

Izoh. Vazirlar Mahkamasiga Iqtisodiyot va moliya vazirligining takliflari asosida mazkur ro‘yxatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi beriladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 22-iyuldagi
398-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Aholi va sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega turizm maskanlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tumanlar
RO‘YXATI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Hudud nomi
1.	Farg‘ona tumani	Farg‘ona viloyati

Izoh. *Vazirlar Mahkamasiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Turizm qo‘mitasining takliflari asosida mazkur ro‘yxatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi beriladi.*

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 22-iyuldagi
398-11-0-Q/24-son qaroriga
4-ilova

Dastlabki bosqichda ildam rivojlantirish uchun tanlab olingan tumanlar RO‘YXATI

T/r	Hudud nomi	Tanlangan tuman nomi
1.	Farg‘ona viloyati	Quva tumani

Izoh. *Vazirlar Mahkamasiga Iqtisodiyot va moliya vazirligining takliflari asosida mazkur ro‘yxatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi beriladi*

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 22-iyuldagi
398-11-0-Q/24-son qaroriga
5-ilova

Master-rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishni tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat komissiyasi TARKIBI

№	Ismi va sharifi	Lavozimi
1.	X.Sirojitdinov	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – **viloyat komissiyasi raisi**
2.	L.Pozilov	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i- **viloyat komissiyasi raisi o‘rinbosari**
Komissiya a’zolari		
3.	Z.Ro‘zaliyev	Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i
4.	A.Soliyev	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
5.	M.Temirov	Turizm boshqarmasi boshlig‘i
6.	N.Mashrapov	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
7.	A.Izatullayev	Avtomobil yo‘llari xududiy bosh boshqarmasi boshlig‘i
8.	F.Tursunov	“Sirdaryo-So‘x” ITXB boshlig‘i
9.	*Lavozim bo‘yicha*	Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, **viloyat komissiyasi kotibi**

Izoh: *Viloyat komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*